



VII. ISTE'MOL BOZORI

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 17 715,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 7,9 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 711,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 9,3 % ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 16 004,5 mlrd. so'mni (10,1 % ga o'sdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 135,9 mlrd. so'mni (31,5 % ga o'sdi) tashkil etdi.

Asosiy tarkib, trln. so'm




Yirik korxonalar



Kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari

O'sish sur'atlari, % da

Yirik korxonalar
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari
Uyushmagan savdo




Tarkibiy qism, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari






Yirik korxonalar



Chakana savdo aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining jamiga nisbatan 9,7 % ni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari 90,3 % ni, shundan uyushmagan savdo 12,1 % ni tashkil qilgan.

Uyushmagan savdo, mlrd. so'mda, ulushi % da




Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm (2021- yil yanvar-dekabr oylari)

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 17 715,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 7,9 % ga o'sdi. Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida Bo'ston tumanidan tashqari barcha shahar va tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida 90,3 % kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va 9,7 % yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

ENG YUQORI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri 31,9 % bilan 5 649,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



ENG PAST ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Ulug'nor tumani 1,0 % bilan 179,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
subyektlarining hajmi va o'sish sur'atlari**


	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxona- lar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	17 715,9	107,9	1 711,4	90,7	16 004,5	110,1
Andijon sh.	5 649,4	106,5	1 265,8	87,1	4 383,6	113,9
Xonobod sh.	180,8	101,8	9,3	41,7	171,5	110,4
tumanlar:						
Oltinko'l	603,5	100,8	27,0	96,8	576,5	101,0
Andijon	1 128,1	117,5	148,4	129,4	979,7	115,8
Baliqchi	890,2	110,6	29,7	72,4	860,5	112,7
Bo'ston	279,7	96,7	18,3	97,1	261,4	96,6
Buloqboshi	614,5	134,8	13,6	102,6	600,9	135,8
Jalaquduq	543,1	116,9	14,3	115,5	528,8	116,9
Izboskan	544,5	108,0	11,9	84,9	532,6	108,6
Ulug'nor	179,8	124,7	2,2	89,2	177,6	125,3
Qo'rg'ontepa	1 119,2	104,0	27,0	125,5	1 092,2	103,6
Asaka	1 620,3	102,8	52,6	82,6	1 567,7	103,7
Marhamat	711,4	112,9	19,6	123,4	691,8	112,7
Shahrixon	2 174,4	107,6	30,4	101,3	2 144,0	107,7
Paxtaobod	695,6	107,4	23,9	113,4	671,7	107,2
Xo'jaobod	781,4	101,7	17,4	125,1	764,0	101,3

2020 - yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari viloyatning Buloqboshi (134,8 %), Ulug'nor (124,7 %), Andijon (117,5 %), Jalaquduq (116,9 %), Marhamat (112,9 %) va Baliqchi (110,6 %) tumanlarida kuzatildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020 - yilning mos davriga nisbatan 9,3 % ga kamaydi va 1 711,4 mlrd. soʻmni tashkil qildi. Bu esa, umumiy savdo hajmining 9,7 % ulushiga toʻgʻri keladi.

Yirik korxonalar ulushi, % da




Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga koʻra 16 004,5 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 10,1 % ga oʻsdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,3 % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushi, % da




Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hududlar kesimida ulushi, foizda

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (98,8 %), Shahrixon (98,6 %), Izboskan (97,8 %), Buloqboshi (97,8 %) va Xo'jaobod (97,8 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 9,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahrida (22,4 %), Andijon (13,2 %), Bo'ston (6,5 %) tumanlari va Xonobod shahri (5,2 %) da kuzatildi.



Yirik korxonalar Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Andijon viloyati bo'yicha aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari

2021- yilning yanvar-dekabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 5 500,5 ming so'm (2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 5,8 % ga o'sdi)ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Andijon shahri (12 438,1 ming so'm), Shahrixon (7 087,3 ming so'm) va Xo'jaobod (6 921,3 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	5 500,5	105,8
Andijon sh.	12 438,1	104,6
Xonobod sh.	4 147,5	99,9
tumanlar:		
Oltinko'l	3 304,9	98,6
Andijon	4 170,5	114,9
Baliqchi	4 340,6	108,5
Bo'ston	3 784,7	94,7
Buloqboshi	4 214,5	132,4
Jalaquduq	2 863,2	114,8
Izboskan	2 236,9	105,9
Ulug'nor	2 937,5	122,0
Qo'rg'ontepa	5 082,7	102,3
Asaka	4 818,0	100,6
Marhamat	4 021,4	110,8
Shahrixon	7 087,3	105,5
Paxtaobod	3 518,5	105,1
Xo'jaobod	6 921,3	99,6



Eng yuqori hajm, ming so'm

Andijon sh. – 12 438,1

Shahrixon – 7 087,3

Xo'jaobod – 6 921,3

Eng quyi hajm, ming so'm


Ulug'nor – 2 937,5

Jalaquduq – 2 863,2

Izboskan – 2 236,9

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi*

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 135,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 31,5 % ga ko'paydi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 708,0 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 113,4 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 427,9 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 149,7 %) tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari


**Uyushmagan savdo aylanmasida dehqon va chorva bozorlari savdo
aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari**

	Jami, <i>mlrd. so'm</i>	2020- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, <i>mlrd. so'm</i>	2020- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, <i>mlrd. so'm</i>	2020- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	2 135,9	131,5	708,0	113,4	1 427,9	149,7
Andijon sh.	407,8	123,0	169,2	84,6	238,6	181,1
Xonobod sh.	2,7	2,0 m.	2,7	2,0 m.	-	-
tumanlar:						
Oltinko'l	40,1	88,1	16,6	85,5	23,5	90,0
Andijon	64,7	5,4 m.	64,7	5,4 m.	-	-
Baliqchi	131,7	141,2	17,1	102,4	114,6	149,8
Bo'ston	17,9	165,7	5,0	122,6	12,9	191,4
Buloqboshi	94,8	132,1	18,4	98,6	76,4	143,9
Jalaquduq	83,9	174,7	19,8	163,2	64,1	178,6
Izboskan	24,5	145,0	6,8	114,0	17,7	161,9
Ulug'nor	51,6	5,1 m.	0,8	19,4	50,8	8,8 m.
Qo'rg'ontepa	65,5	129,0	24,8	142,7	40,7	121,8
Asaka	286,5	121,8	136,1	133,8	150,4	112,7
Marhamat	160,1	131,6	57,8	142,5	102,3	126,2
Shahrixon	429,7	127,4	92,6	92,9	337,1	141,9
Paxtaobod	163,3	120,9	56,5	111,9	106,8	126,3
Xo'jaobod	111,1	107,4	19,1	94,9	92,0	110,4

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 708,0 mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 1 427,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi:

Dehqon bozori



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 708,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (209,8 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

**Uyushmagan savdo tovar aylanmasi:
Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so‘m**



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 1 427,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 1 105,5 mlrd. so‘mni, qo‘y va echkilar 294,1 mlrd. so‘mni, otlar 18,3 mlrd. so‘mni, parrandalar 10,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.


UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI

**Savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
subyektlarining hajmi va o'sish sur'atlari**

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	232,3	109,7	-	-	232,3	111,0
Andijon sh.	115,3	119,1	-	-	115,3	122,3
Xonobod sh.	2,8	136,4	-	-	2,8	136,4
tumanlar:						
Oltinko'l	11,7	38,0	-	-	11,7	38,0
Andijon	18,0	140,0	-	-	18,0	140,0
Baliqchi	6,1	151,7	-	-	6,1	151,7
Bo'ston	3,0	174,9	-	-	3,0	174,9
Buloqboshi	3,2	101,0	-	-	3,2	101,0
Jalaquduq	5,9	102,7	-	-	5,9	102,7
Izboskan	7,0	169,8	-	-	7,0	169,8
Ulug'nor	1,5	63,9	-	-	1,5	63,9
Qo'rg'ontepa	6,2	110,1	-	-	6,2	110,1
Asaka	13,1	126,0	-	-	13,1	126,0
Marhamat	6,3	125,1	-	-	6,3	125,1
Shahrixon	19,8	129,5	-	-	19,8	129,5
Paxtaobod	6,4	110,7	-	-	6,4	110,7
Xo'jaobod	6,0	101,8	-	-	6,0	101,8

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,3 % ulushni tashkil etib, 232,3 mlrd. so'mga yetdi va 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 9,7 % ga o'sdi. Bunda jami savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi



Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 201,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 1,9 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi 580,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 53,2 % ga kamaydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 3 620,6 mlrd. so'mni (25,5 % ga ortdi) tashkil etdi.

**Ulgurji savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes
subyektlarining hajmi va o'sish sur'atlari**

	Jami, <i>mlrd. so'm</i>	2020- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, <i>mlrd. so'm</i>	2020- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, <i>mlrd. so'm</i>	2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	4 201,1	101,9	580,6	46,8	3 620,6	125,5
Andijon sh.	2 285,9	95,3	436,4	54,0	1 849,5	116,2
Xonobod sh.	32,6	136,2	0,2	13,5	32,4	144,1
tumanlar:						
Oltinko'l	128,4	118,6	0,4	139,9	128,0	118,6
Andijon	316,4	2,1 m.	83,7	711,8 m.	232,7	152,9
Baliqchi	124,2	108,6	0,7	141,0	123,5	108,5
Bo'ston	45,2	185,1	0,2	189,1	45,0	185,1
Buloqboshi	24,2	77,5	-	-	24,2	77,5
Jalaquduq	35,7	109,3	0,4	133,0	35,3	109,0
Izboskan	71,1	84,0	0,5	106,6	70,6	83,8
Ulug'nor	24,4	119,1	0,1	101,2	24,3	119,2
Qo'rg'ontepa	42,1	21,3	-	-	42,1	114,5
Asaka	163,8	54,7	-	-	163,8	142,9
Marhamat	11,3	158,0	0,4	125,4	10,9	159,3
Shahrixon	762,8	154,5	56,6	69,0	706,2	171,6
Paxtaobod	76,3	97,3	0,4	132,5	75,9	97,2
Xo'jaobod	56,8	102,6	0,6	2,6 m.	56,2	102,0

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, 3 620,6 mlrd. so'mni va jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 86,2 % ni tashkil etdi.